



Германия Федератив Республикаси
Элчихонаси
Тошкент

Sh. Rashidov ko'chasi, 15, 100017 Toshkent
Tel.: +998 71 120 84 86 Faks: +998 71 120 84 80

Viza bo'limi ish vaqti:
faqat oldindan internet orqali ro'yxatga yozilish
asosida dushanba-juma kunlari soat 8.00 dan 12.00
gacha; elchixonona qo'shimcha qabul vaqti
belgilashga haqli

2016 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma

Ushbu eslatma viza olish uchun kerakli hujjatlarni taqdim etish haqida faqat **umumiy ma'lumot** beradi. **Har bir safar turiga** qarab (mehmonga borish, xizmat safari, ishlash maqsadida, o'qishga borish, oilani birlashtirish maqsadidagi safar) va elchixonona oldindan qabulga yozilish tizimi asosida ro'yxatdan o'tish uchun batafsil ma'lumotni jamlagan **alohida eslatmalar** mavjud. **Ularning mazmuniga e'tibor berishingizni so'raymiz!**

Qanday viza turlari mavjud?

Umuman olganda, ikki xil viza turi mavjud: **Shengen** va **Germaniya milliy** vizasi.

Shengen vizasi yarim yil ichida 90 kundan oshmagan muddatga berilishi mumkin va u ko'rsatilgan vaqt mobaynida barcha Shengen davlatlariga bir necha marta kirib-chiqish imkonini beradi. Germaniya **milliy vizasi** avvaliga uch oyga beriladi va safar maqsadiga qarab 2011 yil 1 sentabrdan boshlab amalda bo'lgan elektron viza Germaniyada beriladi.

Qaysi davlatlar Shengen shartnomasi hududiga kiradi:

Avstriya, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Finlandiya, Fransiya, Chexiya, Shveysariya, Shvetsiya va Estoniya Shengen shartnomasiga a'zo davlatlar sanaladi.

Shengen vizasini olish jarayoniga 2010 yil 5 apreldan boshlab qanday o'zgarishlar kiritildi?

2010 yilning 5 apreldan **Viza kodeksi** qisqa muddatli tashriflar uchun (Shengen vizasi) majburiy huquqiy asos xisoblanadi. Ushbu viza kodeksiga binoan Shengen vizasi **qo'shimcha 15 kunni** o'z ichiga oluvchi **ma'lum bir muddatga** beriladi va bu muddat mobaynida Shengen hududiga a'zo davlatni **tark etish** va o'z vatani hududiga **qaytib kirishni** qulay ravishda rejalashtirish mumkin. **Tibbiy sug'rtta shartnomasi qo'shimcha muddatga mos ravishda tuzilgan bo'lsagina, qo'shimcha muddat belgilanishiga asos bo'la oladi.** **Agar ruxsat etilgan kunlar soni 90 kundan oshsa, qo'shimcha muddat belgilanmaydi.**

Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasi faqat Germaniyaga safar qilish uchun viza beradimi?

Agar **safaringizning asosiy maqsadi** Germaniya, Finlyandiya, Avstriya, Shvesiya yoki Ispaniya davlatlari bo'lsa Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasiga Shengen vizasini olish uchun ariza topshirishingiz mumkin.

Manzil: 100017 Toshkent
Sh.Rashidov ko'chasi, 15

Tel.: +998 71 120 84 86
Faks: +998 71 120 84 80

E-mail: info@taschkent.diplo.de
Web-sahifa: www.taschkent.diplo.de

Germaniya elchixonasi **Avstriya, Finlandiya, Ispaniya** hamda **Shvetsiya** davlatlariga uzoq muddatli safarlar (90 kundan ortiq), shuningdek, ushbu davlatlarda amaliyot o'tash (praktika), oliygohda ta'lim olish yoki ishlash uchun zarur bo'lgan vizani berish **vakolatiga ega emas. Bu turdagi viza uchun yuqorida nomi keltirilgan davlatlarning Moskvadagi elchixonasiga murojaat qilish lozim.**

E'tibor bering:

Bir qancha Shengen davlatlariga safar qilishni rejalashtirgan shaxslar hududida **uzoqroq muddat** to'xtaydigan davlat elchixonasidan viza so'rashlari lozim. Asosiy to'xtash joyini aniqlash imkoni bo'lmasa, safar boshlanadigan davlat elchixonasidan viza so'rash kerak.

Viza bo'limining ish vaqti:

- **Viza bo'limining qabul vaqtlari:** Agar arizachi **qabul uchun** ro'yxatdan o'tgan bo'lsa va viza bo'limiga kirishda **qabulga yozilganlik haqidagi tasdiqnomani** taqdim eta olsagina, viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar „**Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma**“da keltirilgan. Qabulga dushanbadan jumaga qadar soat 8:00 dan 12:00 gacha yozilish mumkin, elchixona qo'shimcha qabul vaqti belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- **Telefon orqali ma'lumot:** Umumiy savollar bo'yicha ma'lumotlar dushanbadan payshanbaga qadar **+99871-1208486** telefon raqami orqali beriladi. Iltimos, **elchixona bilan telefon orqali bog'lanishdan oldin asosiy savollar ro'yxatida (FAQ) savolingizga** javob bor yo'qligini tekshirib ko'ring. Agarda javob mavjud bo'lsa, biz bilan telefon orqali bog'lanishingizga hojat qolmaydi. Afsuski, ko'rib chiqilayotgan hujjatlar haqidagi ma'lumotlar telefon orqali berilmaydi. Hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoni qay bosqichda ekanligini bilish uchun faqat arizachining o'zi, yoki u tomondan yozma ravishda tayinlangan shaxsgina yozma ravishda murojaat qilishi mumkin.

Hujjatlarni taqdim etish asosiy qoidalari hamda pasportga qo'yiladigan talablar:

- **Hujjatlarni arizachining shaxsan o'zi topshirishi lozim. Bu vazifani boshqa shaxsga yozma ravishda va belgilangan tartibda yuklatish imkoniyati mavjud bo'lsa ham, ushbu vakolat arizachiga elchixona hodimlari bilan yuzma-yuz suhbatdan ozod bo'lish xuquqini bermaydi.** Voyaga etmagan bolalar uchun ham alohida ariza formulari to'ldirilib, formular ota-onasi, yoxud rasmiy vasiy tomonidan imzolanaadi. Amal qilayotgan maxalliy talablar sababli, voyaga etmagan bolalarning na otasi na onasi ota-onalik xuquqidan maxrum etilgan, ammo ariza formularini ulardan faqat bittasi imzolagan bo'lsa, u holatda imzosi yo'q otadan yoki onadan notarius tomonidan tasdiqlangan rozilik xati talab qilinadi. **Qabulga yozilish qanday amalga oshishini „Qabulga yozilish tizimi haqidagi ma'lumotnoma“** dan bilib olishingiz mumkin.
- **Pasportingiz imzolangan bo'lishi, unda kamida ikkita bo'sh sahifa bo'lishi hamda uning amal qilish muddati so'ralayotgan vizaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng yana 3 oydan kam bo'lmasligi** lozim. Bundan tashqari, vizaga hujjat topshirilayotgan paytda pasportning berilgan muddati **10 yildan oshmasligi** kerak.
- Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining balog'atga yetmagan fuqarolariga Shengen shartnomasiga a'zo quyidagi davlatlarga **bolalar pasporti** bilan kirishga ruxsat etiladi: Belgiya, Germaniya, Latviya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya va Estoniya. Bundan tashqari, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya davlatlariga kirishning muhim sharti – bolalar pasportining **bir yildan kam bo'lmagan muhlatga berilganligidir.**

Viza olish uchun hujjatlarni to'playotganda nimalarga ahamiyat berish lozim?

- Viza uchun talabnoma rejalashtirilgan **safar boshlanishiga uzog'i bilan uch oy qolganida** topshirilishi mumkin.
- **Fotosuratlar** (ariza berilgan kundan uzog'i bilan uch oy oldin olingan) **passport formatidagi** 45x35 mm hajmda bo'lishi, yuzingizning oldi tarafidan olingan bo'lishi, shuningdek, bosh kiyimsiz va ko'zingiz atrofi ochiq holda tushirilishi zarur. Fotosuratlar namunasini http://www.bundesdruckerei.de/de/buerger/2_1_b/_2_1_b.html web-sahifasidan topish mumkin. Har bir viza talabnomasiga bittadan fotosurat yopishtirilgan yoki stepler yordamida birlashtirilgan bo'lishi shart. Yana bir dona fotosurat viza uchun kerak bo'ladi.
- Germaniya Federativ Respublikasida bo'lish haqidagi qonunning 54 moddasi asosidagi **izohnomani** to'liq to'ldirgan va imzolagan holda viza talabnomangizga ilova qiling.

E'tibor bering:

- **Bir nechta shaxs uchun taklifnomalar:** agar bir nechta shaxs Germaniyaga bir kishi tomonidan taklif qilinsa, elchixonona ishini yengillashtirish maqsadida, ularga **viza so'rovnomalarini bir vaqtda topshirishlari** tavsiya qilinadi.
- **Amal qilayotgan maxalliy qoidalar sababli ota-onasining biri bilan safarga chiqayotgan bolaga vasiylik huquqiga ega, lekin bola bilan birga safarga bormayotgan ota yoki ona (vasiy) bolaning xorijga chiqishiga roziligini bildiruvchi va notarius tomonidan tasdiqlangan rozilik xatining asl nusxasi taqdim etilishi shart.**

Qanday hujjatlar taqdim etilishi lozim?

Odatda, safaringiz maqsadiga mos keladigan eslatmalarda ko'rsatilgan barcha hujjatlarni asl nusxasida taqdim etish lozim. Eslatmada ko'rsatilgan hujjatlar ro'yxati to'liq va batafsilligini elchixonona kafolatlamaydi. Ba'zi hollarda qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi yoki arizachi viza bo'limiga qayta suhbatga taklif qilinishi mumkin. Bekamu - ko'st topshirilgan hujjatlarga arizalarni qisqa muddatda ko'rib chiqilishiga asos bo'la oladi. Shuning uchun barcha talab qilingan hujjatlarni to'liq taqdim etish o'zingizning manfaatingizdadir. Aks holda, viza bo'limi hodimlari Sizga jiddiy kamchiliklar bilan taqdim qilingan hujjatlar, hamda arizachilarning shu kamchiliklarni bartaraf etishda qoniqarsiz ishtiroki viza berilmasligiga olib kelishi mumkinligini ma'lum qilib, to'liq hujjatlar bilan qayta kelishingizni tavsiya qilishadi.

Muhim ma'lumot: Siz tomondan taqdim etilgan hujjatlar safaringizdan ko'zlangan maqsadni to'liq ifodalashi lozim. **Safardan ko'zlagan maqsadingiz borasida shubha tug'ilishi viza talabnomangiz bo'yicha salbiy qaror qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.**

Tibbiy sug'urta qanday talablarga asoslanishi kerak?

1. Tibbiy sug'urta amal qilish muddati safar muddatini to'liq qoplagan hamda 15 kunlik qo'shimcha muddatni o'z ichiga olgan va Shengen shartnomasiga a'zo barcha davlatlar hududida amal qilishi shart.
2. Qoplama miqdori 30.000 yevro dan kam bo'lmasligi kerak.
3. Tibbiy sug'urta shartnomasi odatda barcha Shengen davlatlari hududida o'z filiali va idorasiga ega bo'lgan hamda O'zbekistondagi Shengen davlatlari elchixonalarida akkreditatsiyadan o'tgan sug'urta kompaniyasi bilan tuziladi. O'zbekistonda tan olingan **sug'urta kompaniyalarining amaldagi ro'yxati**ni quyidagi manzildan topishingiz mumkin.
4. Yana bir imkoniyat shundan iboratki, tibbiy sug'urta bilan himoyalanganlik kredit karta egalariiga ko'rsatiladigan xizmat sifatida asoslab berilishi mumkin yoki sug'urta shartnomasi

taklif qiluvchi shaxs tomonidan Shengen davlatlari hududida sug'urta xizmatining miqdori tasdiqlangan holda tuzilishi mumkin. Taklif qiluvchi shaxsning tibbiy sug'urta mavjudligi haqidagi ishontirishlari yetarli emas.

5. Istisno: Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar fuqarolarining oila a'zolari va diplomatik pasport egalari viza talabnomasini topshirish jarayonida tibbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni topshirish majburiyatidan ozod qilinadi, ammo, ular Shengen davlatlari hududiga kirish vaqtida talabga muvofiq amal qilayotgan tibbiy sug'urtani taqdim eta olishlari lozim bo'ladi.

Viza bo'limida hujjat topshirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

- **Qabul oynasi oldidagi suhbat:** Siz tomondan taqdim etilgan hujjatlar va sizga berilgan savollar viza talabnomangizni to'g'ri baholashga xizmat qiladi. Iltimos, o'z manfaatingizdan kelib chiqqan holda Sizga berilgan barcha savollarga to'liq va haqqoniy javob bering.
- **Hujjatlardagi kamchiliklar:** Qoidaga binoan, safar maqsadiga ko'ra tuzilgan eslatmadagi hujjatlar **asli va bittadan nusxasi** to'liq tartibda taqdim etilsagina, viza talabnomasi qabul qilinadi. Viza berish, yoki bermaslikni qaror qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlar yetishmasa, viza bo'limi hujjatlaringizni qabul qimaslikka xaqlidir (yuqoridagi taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar sarlavhasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni inobatga oling) Bu holda keyingi qabulga kirish uchun qaytadan bo'sh kunga yosilish lozim bo'lishiga **e'tibor qaratishingizni so'raymiz**. Agar Siz ma'lum sabablarga ko'ra ba'zi hujjatlarni taqdim eta olmasangiz, buni suhbat chog'ida albatta ayting. Talab qilingan hujjat o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etsangiz, bu viza talabnomangizni ko'rib chiqishda inobatga olinadi.
- Shengen - va Tranzit vizalari uchun topshirilgan hujjatlarni ko'rib chiqish konsullik badali 60 evroni tashkil etadi. 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 35 evro.
Quyidagi shaxslar tegishli hujjatlarni taqdim etgan hollarda bu to'lovlardan ozod qilinadi:
 1. Germaniya fuqarosining turmush o'rtog'i
 2. Balog'at yoshiga etmagan va Germaniya fuqaroligiga ega bo'lgan bolalarning ota-onalari, hamda Germaniya fuqarolarining voyaga etmagan farzandlari
 3. Yevropa ittifoqi fuqarolarining turmush o'rtog'lari*
 4. Yevropa ittifoqi fuqarolarining yoki shular bilan nikohda bo'lgan shaxslarning farzandlari*
 5. 6 yoshga to'lmagan bolalar

*Yevropa ittifoqi hududida erkin harakatlanish va istiqomat qilish huquqidan foydalanagan holda, Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatning fuqarosi boshqa ittifoqdosh mamlakatda yashab kelayotgan bo'lsa. Masalan Germaniyada yashayotgan Frantsiya Fuqarosi. Germaniyada yashayotgan Germaniya Fuqarosi bunga misol bo'la olmaydi.

Konsullik badali viza talabnomasi topshirilayotganida elchixonaning viza bo'limida **faqat AQSH dollarida** amalga oshiriladi. 1996 yildan keyin chiqarilgan, yaxshi holatdagi muhr va yozuvlarsiz kupyuralar qabul qilinadi.

Viza so'rovnomangiz boy'icha qarorni kim qabul qiladi?

- Oyna oldida hujjatlarni qabul qiluvchi elchixonona xodimi Sizning viza talabnomangiz bo'yicha **qaror qabul qilmaydi**. Bu boradagi qaror har qanday holatda ham elchixonaning Germaniya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan yuborilgan xodimlari tomonidan qabul qilinadi.
- **Qalbaki hujjatlarni** taqdim etish va **noto'g'ri ma'lumotlar** berish viza talabnomangizga so'zsiz rad javobi berilishiga va Sizga Germaniya (shuningdek, Shengen shartnomasiga a'zo boshqa davlatlar) hududiga kirishni ta'qiqlashga olib keladi.

Viza talabnomasini ko'rib chiqish muddati qancha?

a) Germaniyaga safar qilish uchun Shengen vizasi: Viza berish tartibiga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining viza talabnomalarini ko'rib chiqish muddati 15 kundan oshmasligi

kerak. Hujjatlarni chuqurroq o'rganish va tekshirish zarurati bo'lmasa, elchixona O'zbekiston Fuqarolarining hujjatlarini 4 ish kun davomida ko'rib chiqishga harat qiladi. Arizachilar so'rovnomalarini ushbu 4 kun mobaynida ko'rib chiqilishini talab qilish huquqiga ega emas. Viza berilishini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida elchixona hujjatlarni **safar boshlanishidan kamida 7 kun oldin** taqdim etishni tavsiya qiladi. **Boshqa davlat fuqarolari, yoki fuqaroligi yo'q shaxslarning arizalarini ko'rib chiqish muddati yuqorida qayd etilgan muddatlardan farq qilishi mumkin.**

b) Finlandiya, Avstriya, Shvetsiya yoki Ispaniyaga safar qilish uchun Shengen vizasi: yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor bering. Safar maqsadi bo'lgan davlat mutasaddi idoralarining viza berish jarayoniga jalb etilgan hollarda muhlat **30 kungacha** cho'zilishi mumkin. Qo'shimcha hujjatlar talab qilingan taqdirda, viza talabnomalarini ko'rib chiqish jarayoni **60 kungacha davom etishi mumkin. Talabnomani ko'rib chiqish jarayoni haqida ma'lumot berilmaydi.**

c) Milliy viza: Viza berilishi uchun **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha idoralardan (Ausländerbehörde)** birining ishtiroki talab etilgan hollarda (oilani birlashtirish, yoki ma'lum hollarda ishlash va boshqa uch oydan ko'p davom etadigan safarlar uchun) hujjatlarni ko'rib chiqish muddati **uch oygacha** davom etishi mumkin. Elchixona hujjatlarni Germaniyada ko'rib chiqish muddatiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Viza talabnomasi topshirilayotganda taqdim etiladigan pasport va, safar maqsadiga qarab, hujjatlarning asl nusxalari arizachiga darhol qaytarib beriladi.

- [Talabalik vizasi](#) ni olish uchun alohida qoidalar mavjud, to'liq ma'lumot tegishli eslatmada keltirilgan.

Milliy viza olish uchun topshirgan hujjatlarim borasida qabul qilingan qaror haqidagi ma'lumotni qaerdan olaman?

- Qabul qilingan qarorni Sizga yetkazish uchun elchixona Siz bilan bog'lanadi.

Quyidagi qo'shimcha eslatmalarga e'tibor qaratishingizni so'raymiz:

- Arizachi Shengen shartnomasiga a'zo davlatlarga qisqa muddatli safarlar uchun viza berilishiga **da'vo qilish huquqiga** ega emas.
- Vizada ko'rsatilgan to'liqsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar tufayli safarning kechiktirilishiga elchixona javobgar emas. **Har bir arizachi pasportni qaytarib olayotganda, undagi vizani tekshirib olishi shart.**
- **Shengen shartnomasiga a'zo davlatlar chegara xizmatlari** amal qilish kuchiga ega viza bo'lgan holda ham chet el fuqarolariga davlat hududiga kirishni man etish huquqiga ega. Shu sababdan, ehtimoliy chegara tekshiruvida taqdim etish uchun o'z viza talabnomangizni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini (avvalambor, talkifnoma, yetarli mablag'ga ega ekanligingizni tasdiqlovchi hujjat hamda tibbiy sug'urta polisi) safarga olib chiqing.